

ANTROPONIMLARDA ISLOMIY VA DUNYOVIY QARASHLARNING IFODALANISHI

Ahmadaliyeva Mashura Abdufattoh qizi,

O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va O'zbek filologiyasi fakulteti

Lingvistika: O'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843762>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot antroponimlarda islomiy va dunyoviy qarashlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlanadi. Unda shaxs ismlari orqali jamiyatning diniy e'tiqodlari, axloqiy-me'yoriy qarashlari hamda dunyoviy tafakkuriga xos g'oyalar qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Islomiy antroponimlarning shakllanishida Qur'oniy manbalar, payg'ambarlar va sahobalar nomlari, ilohiy sifatlar hamda diniy qadriyatlarining o'rni yoritiladi. Dunyoviy antroponimlarda esa tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar, tabiat hodisalari, estetik ideallar va ijtimoiy-madaniy omillar aks etishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda antroponimlar orqali jamiyat tafakkuridagi diniy va dunyoviy qarashlarning o'zaro uyg'unligi, tarixiy taraqqiyot jarayonida ularning transformatsiyasi hamda madaniy identitetni shakllantirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: din, islomiy ismlar, Mutavalli, Qalandar, Valiy, component, diniy maskanlar, ziyoratgohlar.

Annotation. This study is devoted to identifying the manifestations of Islamic and secular worldviews in anthroponyms. It analyzes how religious beliefs, moral–normative values, and ideas inherent in secular thinking are reflected in personal names. The research highlights the role of Qur'anic sources, the names of prophets and companions, divine attributes, and religious values in the formation of Islamic anthroponyms. In contrast, secular anthroponyms are shown to reflect historical figures, national heroes, natural phenomena, aesthetic ideals, and socio-cultural factors. The study scientifically substantiates the harmony between Islamic and secular perspectives embodied in anthroponyms, their transformation in the course of historical development, and their role in shaping cultural identity.

Keywords: religion, Islamic names, Mutavalli, Qalandar, Vali, component, religious sites, shrines, pilgrimage sites.

Аннотация. Данное исследование посвящено выявлению особенностей проявления исламских и светских мировоззренческих установок в антропонимах. В нем анализируется, каким образом через личные имена выражаются религиозные убеждения общества, его нравственно-нормативные представления, а также идеи, присущие светскому мышлению. Освещается роль коранических источников, имен пророков и сподвижников, божественных атрибутов и религиозных ценностей в формировании исламских антропонимов. В светских антропонимах, в свою очередь, показано отражение имен исторических личностей, национальных героев, природных явлений, эстетических идеалов и социально-культурных факторов. В исследовании научно обосновывается взаимная гармония религиозных и светских взглядов в общественном сознании, их трансформация в процессе исторического развития, а также роль антропонимов в формировании культурной идентичности.

Ключевые слова: религия, исламские имена, Мутавалли, Каландар, Вали, компонент, религиозные объекты, святые места, места паломничества.

Kirish. Islom dinining O'rta Osiyoda keng tarqalishi va singishi yerli xalqlar ma'naviy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi, ularning bolani nomlash odatlari hamda an'analariga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrga kelib ism berishning Islomgacha bo'lgan turkiycha (o'zbekcha) rasm-rusumlari "Islomchasiga, musulmonchasiga nomlash" odatlari bilan almasha boshladi. Chaqaloqqa nom berish Islom dinining ma'lum talablarini amalga oshirish natijasida (masalan, chaqaloqning qulog'iga azon aytish, chaqaloqqa diniy tushunchali ism tanlash va b) bajariladigan bo'ldi. Shuning uchun o'zbek ismlari fondining tarkibiy qismlaridan birini diniy ma'noli, asli arabcha bo'lgan ismlar tashkil qiladi. Bu nomlar o'zbek tiliga O'rta Osiyoda Islom dini keng tarqalgach, mahalliy aholi musulmonchilik aqidalariga amal qila boshlagach kirib keldi. Islom dinida shaxsning nomi kishining hayoti va taqdirida muhim rol o'ynaydi, yaxshi ism odamga omad, aksincha yomon va noqulay ism esa baxtsizlik keltiradi, deb hisoblanadi [2:136].

Adabiyotlar sharhi. Antroponimika onomastikaning muhim tarmoqlaridan biri sifatida til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jahon va milliy tilshunoslikda antroponimlar shaxsiy nomlar orqali jamiyatning diniy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy qarashlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qilinadi. Xususan, islomiy va dunyoviy qarashlarning antroponimlarda ifodalanishi masalasi diniy-dunyoqarashlar sintezi nuqtayi nazaridan o'rganilib kelinmoqda. Dunyoviy antroponimlar esa ko'proq milliy tarix, etnik tafakkur, tabiat va estetik qarashlar bilan bog'liq holda izohlanadi. Ularning shakllanishida tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari, tabiat hodisalari, ijtimoiy-madaniy muhit va zamonaviy tafakkur unsurlari muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilar bunday ismlarni jamiyatning sekulyar tafakkuri, ijtimoiy ongdagi yangilanish va modernizatsiya jarayonlari bilan bog'lab talqin qiladilar. So'nggi yillarda antroponimlarni lingvomadaniy va sotsiologik yondashuv asosida o'rganish kuchayib, diniy va dunyoviy qarashlarning o'zaro uyg'unligi, ularning tarixiy taraqqiyot jarayonidagi transformatsiyasi masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, antroponimlarning madaniy identitetni shakllantirishdagi roli ham ilmiy muhokama markaziga chiqmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda antroponimlarda islomiy va dunyoviy qarashlarning ifodalanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Jumladan, quyidagi metodlar asosiy tadqiqot vositasi sifatida tanlandi:

Tavsifiy metod – islomiy va dunyoviy antroponimlarning umumiy xususiyatlarini aniqlash, ularning lingvistik va semantik belgilarini izohlashda qo'llanildi.

Qiyosiy-tahliliy metod – diniy va dunyoviy antroponimlarning shakllanish manbalari, semantik motivatsiyasi va funksional jihatlarini o'zaro solishtirish asosida farqlashga xizmat qildi. Lingvomadaniy yondashuv – shaxs ismlarini jamiyatning madaniy qadriyatlarini, diniy e'tiqodlari va dunyoviy tafakkuri bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilish imkonini berdi. Tarixiy metod – antroponimlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish, ularning transformatsiyasini aniqlashda qo'llanildi. Semantik tahlil – ismlarning ma'no qatlamlarini ochib berish, ularning ramziy

va konseptual mazmunini yoritishda asos bo'ldi. Tadqiqot materiali sifatida turli davrlarga oid shaxs ismlari, tarixiy manbalar, og'zaki va yozma nutq namunalarida uchraydigan antroponimlar tanlab olinib, tizimli tahlil qilindi. Metodlarning uyg'un qo'llanilishi antroponimlar orqali jamiyat tafakkuridagi diniy va dunyoviy qarashlarning o'zaro munosabatini ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi.

Natijalar. Diniy motiv mavjud bo'lgan ismlarni quyidagi tasnif asosida ko'rib chiqishimiz mumkin:

a) farzandli bo'lishni Allohning xohish-irodasi deyilgan ismlar: Yormiqob, Jarilqosin, Tangriberdi, Tangribergan, Unabbergan, Egambergan, Egamberdi, O'g'on, O'g'onberdi, Xudoyberdi, Xudoybaxsh, Ezidbaxsh, Yazdonbaxsh, Xudoyniyoz, Inobat (Alloh ma'qul topib bergan), In'om, Najot, Nazar;

b) yolvorish va iltijo orqali so'rab olingan farzand ismlari: Sovg'abek, Tilakbergan, Tilovberdi, Tilaboldi, To'lagan, Iltimos, Iltijo, Inoyat (xayrixohlik), Tovon, Tovona, Badal (evaz), Vasiqa (umidlanib erishilgan), Inog'om (sovg'a), In'om, Marhamat (Allohning marhamati), Tavallo (so'rab, yolvorib erishilgan), Intizor (qo'msab erishilgan), Muntazir (zor bo'lib erishilgan), Muyassar (orzuyimiz sovg'asi), Niyat (so'rab olingan), Havas, Havasxon (havas qilib kutilgan) va boshqalar;

c) payg'ambarlar va ularning nomi bilan bog'liq ismlar: Ismoil, Ibrohim, Muhammad, Ya'qub, Yusuf, Muso, Payg'ambarqul, Hizr, Me'roji;

d) sahobalar, payg'ambarimizning oila a'zolari, mashhur avliyo va din peshvolarining nomlari bilan bog'liq ismlar: Umar, Usmon, Ali, Abu Bakr, Zubayr, Bilol, Zayd, Zaynab, Oyisha, Sofiya, Hadicha, Fotima va boshqalar;

e) ba'zi diniy tasavvur va talqinlarni ifodalab keluvchi ismlar: Pari, Parizod, Pirbobo, Pir, Banda (qul), Bashir (xushxabar keltiruvchi), Bashorat (xushxabar), zikir (yodlash, xotirlash), Zoir (ziyoratchi), Zokir (yodga oluvchi), Zokiriy (Allohni yodga oluvchi), Zohid (xudojo'y), Islom, Obid (taqvodor), Mashkura (shukr qiluvchi), Mag'firat (gunohidan o'tilgan), Mo'min, Shariat (to'g'ri, ilohiy yo'l), Shokir (shukr qiluvchi), G'ilmon (xizmatkorlar, g'ulomlar), Hidoyat (to'g'ri din yo'liga boshlovchi), Hofiz (o'z panohida asrovchi), Mahram (sirdosh), Muslim (musulmon), Nazar, Nazira (din yo'liga sadaqa), Himoyat (himoyaga olingan);

f) diniy mansab va unvon nomlarini ifoda etuvchi ismlar: Baxshi, So'fi, Eshon, Mulla (din xizmatkori), Mutavalli, Qalandar, Valiy (avliyo), Duoxon, Maxdum (din xizmatkori), Mudarris (madrasa muallimi), Mufti (shariat qoidalari bilimdoni), Sadr (diniy boshliq), Sayid (ega, xo'ja, boshliq), Xalfa (diniy maktab o'qituvchisi), Xatib (xutba o'quvchi), Xoja (xo'jayin, boshliq), Shayx (diniy boshliq, ustoz), Qozi (diniy hakam), Qori (Qur'anni yoddan o'quvchi), G'ozi (dinning g'olib jangchisi), Avliyo, Imom (oldin turuvchi), Hoji (ziyoratchi, sig'inuvchi), Toqi (taqvodor, adolatli);

i) diniy udum va marosimlar bilan bog'liq ismlar: Bomdod, Ro'za, Ramazon, Ziyorat, Hayit, Mavluda, Nomoz, Ibodat (Allohga sig'inish), Salovat (maqtov, olqish), Sajida

(sajda qiluvchi), Tilovat. Bulardan, misol uchun, Ramazon va Ro‘za, Ro‘zivoy, Ro‘zimuhammad kabi ismlar Ro‘za oyida tug‘ilgan bolalarga qo‘yilgan;

g) diniy maskanlar, ziyoratgohlar nomi bilan bog‘liq ismlar: Firdavs (jannat bog‘i), Arofat (Makkadagi tog‘ nomi, hojilar ba‘zi amallarini bajarishadi), Baytulla (Muqaddas Ka‘baning yana bir nomi), Jannat, Ka‘ba, Makkaxon (Ka‘ba joylashgan va payg‘ambarimiz tug‘ilgan hudud), Mashhad (shahidlar qoni to‘kilgan), Najab (Ali ko‘milgan joy), Ranza (jannat bog‘i), Rizvon (jannat bog‘i), Kavsar (jannat bog‘ida joylashgan buloq nomi) va boshqalar;

h) asosida “din” komponenti mavjud bo‘lgan ismlar: *Aminiddin* – dinni mustahkamlovchi yoki dinning qadrli farzandi; *Asomiddin* – dinning tutqichi, tayanchi yoki dinning ko‘magi, madadi; *Sayfiddin* –dinning qilichi; *Nizomiddin* – din nizomi; *Ziyovuddin* – dinning nuri, yog‘dusi, din mash‘ali, *Isomiddin* – dinning tutqichi, tayanchi, dinga madad beruvchi, dinga ko‘makdosh, *Kamoliddin* – dinning kamoloti, ravnaqi yoki dinning kamolga yetgan, yetuk farzandi, *Salohiddin* – dinning ezguligi, yaxshiligi, din baxsh etuvchi iqbol, saodat yoki dinning saodatli farzandi; *Jaloliddin* – dinning ulug‘vorligi, shafqati, shukuhi, dinning buyukligi va ravnaqi; *Bahovuddin* – dinning ulug‘vorligi, ko‘rki yoki din ato qilgan bola va boshqalar;

j) asosida “qul”, “g‘ulom” kabi birliklar mavjud bo‘lgan ismlar: Abdufattoh, Abduqodir, Abdurahmon, Abdurahim, Abdulloh, Rahimqul, Abduvahhob, So‘fiqul, Is‘hoqqul va boshqalar. Bu kabi ismlarni sanaydigan bo‘lsak, ko‘plab davom ettirishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday arab tilidan o‘zlashgan ism ham islomiy ismlar qatoriga kiravermaydi, ushbu antroponim qachonki bizga dindan hikoya qilsa olsa, diniy aqidalar va urf-odatlariga bog‘liq bo‘lsagina biz bu tasnifga kirita olamiz. Yana shuni ham ta‘kidlab o‘tishimiz kerakki, hozirgi kunda diniy ismlar eng ko‘p foydalanilayotgan nomlardir.

O‘zbek antroponimik tizimida shaxs nomlari nafaqat diniy e‘tiqodlar, balki xalqning kundalik turmushi, marosimlari, bayramlari va ijtimoiy an‘analari bilan ham uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ayniqsa, ma‘lum bir vaqt, voqea yoki marosim bilan bog‘liq holda qo‘yilgan ismlar alohida lingvokulturologik qatlamni tashkil etadi. Bunday antroponimlar orqali xalqning vaqtni idrok etishi, hayotiy qadriyatlarini va kollektiv ongidagi muhim hodisalar aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanov. N. O‘zbek antroponimlarining tarixi. - Toshkent. 2014.
2. Begmatov. E. O‘zbek tili antroponomikasi. – Toshkent. Fan, 2013.
3. Begmatov. E. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan, 1981.
4. Qorayev S. O‘zbek onomastikasi. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Matyoqubova, D. O‘zbek toponimikasining lingvokulturologik asoslari. Toshkent, 2018.